

VOLUME II | ISSUE 3 | MARCH

Journal of Culture and Art

КУЛТУРА И ИСКУССТВО
МАДАНИЈАТ ВА САЊАТ

| 2024

ISSN: 2181-4562



Available online at www.imfaktor.com

 **IMFAKTOR**
Science driven pages

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3-СОҢ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-II, НОМЕР-3

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-II, ISSUE-3

ТОШКЕНТ – 2024

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 3 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2024-3>

БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал
Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиев Иқбол
Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, профессор в.б., Санъатшунослик
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим
Козимович

Ходжаметова Гулчира
Илишевна

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни
ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус
филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих
фанлари номзоди, профессор

Абдувоҳидов
Фахриддин
Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, доцент, Санъатшунослик фанлари
бўйича фалсафа доктори (PhD)

Кадиров Рамз
Турабович

Умаров Мамур
Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна
нутқи” кафедраси доценти

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
“Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси
профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Худоев Ғани
Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
“Чолғу ижрочилиги ва мусиқа назарияси” кафедраси
профессори в.б., Санъатшунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)

Бердиханова Шахида
Нурлыбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати
институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси”
кафедраси мудири, санъатшунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон
Раимқулович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта
ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Суннатиллаев Асатилло
Суннатович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати
институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-
педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил
изланувчи (PhD)

Алланбаев Рудакий
Оринбаевич

Қорақалпоғистонда хизмат кўрсатган артист, “Шуҳрат”
медали соҳиби, профессор в.в.б

Зиявутдинова Зулфия
Усеиновна

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

Раимова Дилфузахон
Махаммадсолиевна

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

Ботирова Хилола
Турсунбаевна

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

*“Маданият ва санъат” журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган. Мазкур журнал **6 та** халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 7.7 “импакт-фактор”** кўрсаткичига эга.*

*Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади.***

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2024 йил.

© Мўаллифлар жамоаси, 2024 йил.

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

ALIMDJANOVA Nodira Abdugaparovna*O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi**“San’at nazariyasi va tarixi”**kafedrasining dotsent v.b.*<https://doi.org/10.5281/zenodo.10820800>

O‘ZBEK RAQS SAN’ATINING RIVOJLANISH JARAYONLARI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada raqs san’atining o‘ziga xos xususiyatlari, rivojlanish bosqichlari, O‘zbekiston hududida raqsning rivojlanish masalalari yoritiladi. O‘zbek raqs san’atining qadimiyligi, raqs va musiqaning uzviy bog‘liqligi haqida so‘z boradi. Maqolada raqs san’atining inson hayotidagi o‘rni, ahamiyati, raqsning inson ijod mahsuli ekanligi haqida so‘z boradi. Raqs san’atining inson hayot tarzi, udumlari va urf-odatlar bilan bog‘liqligi masalasiga alohida e‘tibor beriladi.

Kalit so‘zlar: raqs, musiqa, harakat, xalq raqsi, san’at, ijod, odat, hayot tarzi.

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ УЗБЕКСКОГО ТАНЦЕВАЛЬНОГО ИСКУССТВА

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы своеобразия танцевального искусства, этапы развития узбекского танцевального искусства, его самобытность. В статье идет речь о традициях в узбекском танце, о тесной связи музыки и танца. Подчеркивается значение танца в жизни человека, развития танцевального искусства в тесной взаимосвязи с бытом народа, его укладом жизни, обычаями и мировоззрением.

Ключевые слова: танец, музыка, движение, народный танец, искусство, творчество, обычай, уклад жизни.

STAGES OF DEVELOPMENT OF UZBEK DANCE ART

ANNOTATION

This article discusses the issues of the originality of dance art, the stages of development of the Uzbek dance art, its originality. The article talks about traditions in Uzbek dance, about the close connection between music and dance. The importance of dance in human life, the development of dance art in close connection with the life of the people, their way of life, customs and worldview are emphasized.

Key words: dance, music, movement, folk dance, art, creativity, custom, way of life.

Jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotida insonning ijod mahsuli, ichki kechinmalarining nozik namunasi bo'lgan san'at barcha davrlarda ham yuksak mavqega ega bo'lgan. San'at hamisha inson ma'naviy olamining ajralmas qismi, o'ziga xos ozuqa bo'lib kelgan. Shu bilan birga san'atning paydo bo'lishi, rivojlanishi hamda taraqqiy etishida inson ma'naviy ongining muhim ko'rinishi: fikr-mulohazasi, ta'rifi va e'tirofi muhim ahamiyat kasb etgan.

Raqs san'ati insoniyat tarixining dastlabki davrlarida mehnat jarayonlarida, maishiy ko'rinishlarda paydo bo'ldi. Xalqning maishiy hayoti bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanib kelgan, maishiy mazmun-mohiyatga ega bo'lgan raqs, keyinchalik tomoshaviylikka kasb etib borgan. Uzoq tarixiy taraqqiyot natijasida raqs sayqallanib, badiiy boyib keldi.

Mustaqillik yillarida o'zbek an'anaviy raqslarini asrash, o'zbek raqs san'atining tarixiy an'analarini, badiiy uslublarini va usullarini tiklash hamda boyitish, raqslarni millatimizning o'ziga xos fazilatlarini, boy ma'naviyatiga munosib darajada ijro etishga e'tibor qaratildi.

Mustaqillik sharofati bilan respublikada ko'plab bayram va urf-odatlar tiklandi. An'analar, marosimlar va urf-odatlar qaror topdi, milliy qadriyatlarni tiklash, mavjud raqs maktablarining an'analarini xalq orasida ommalashtirish va ularni chuqur o'rganish uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Raqs san'ati insonning eng nafis his-tuyg'ulari va hayajonlarini, nozik ichki kechinmalari hamda orzu-umidlarini o'zida mujassam etadi, bu tuyg'ularni nozik harakatlarda ko'rsatadi. Raqs san'atida har bir millatning o'ziga xos xususiyatlari, qiyofasi, xalqning tarixi va ruhiyati o'zligi bilan namoyon bo'ladi.

O'zbek milliy raqs san'ati o'zining chuqur mazmunga egaligi, nafisligi, nozikligi, ichki kechinmalar va go'zal his-tuyg'ularga boyligi hamda sharqona hulq - atvor zamirida yuzaga kelganligi bilan alohida ajralib turadi. O'zbek milliy raqs san'ati xalqimizning madaniy-ma'naviy boyligi sifatida qadrlanib, hozirgi kungacha avaylab-asrab kelinmoqda.

Bugungi kunda raqs san'ati inson ma'naviy olamida katta ahamiyat kasb etadi, shu bois o'zbek raqs san'atining rivojlanish jarayonlari, raqsshunoslik ilmining paydo bo'lishi hamda rivojlanishi, o'zbek raqs san'ati rivojiga o'z hissasini qo'shgan raqsshunoslarning ilmiy va ijodiy yo'lini o'rganish nihoyatda muhimdir.

Xalqimizning ma'naviy merosini saqlash, mustahkamlash va rivojlantirish, uni kelajak avlodga to'liq holda yetkazish vazifalari samarali ishlar asosida amalga oshirilmoqda. Kelajak avlod uchun xalqimizning boy tarixiy, madaniy, badiiy va ma'naviy merosini nafaqat saqlab qolish, balki uni chuqur o'rganish va tadbiiq qilish hozirgi kunning muhim vazifasiga aylandi.

Raqs san'ati uzoq tarixiy rivojlanish davrini bosib o'tgan hamda boshqa san'at turlari bilan bir vaqtda, bir o'zakdan kelib chiqqan. Raqs ajdodlarimiz uchun hayotda doimiy mehnat faoliyatini tiklashda, estetik zavq olishda muhim ifodaviy hamda badiiy vosita bo'lib xizmat qilgan. Shu bilan birga inson mehnat faoliyati orqali nafaqat raqsga, balki qo'shiq, teatr, tasviriy san'atga ham murojaat etgan.

Raqs san'ati xalqlarning eng qadimiy san'at turlaridan biri bo'lib, u xalqning milliy ruhini ifoda etadi. Qadimiy raqslar ibtidoiy davrda yashagan insonning mehnat jarayonida va atrofda hodisalardan olgan his-tuyg'ulari va estetik taassurotlari bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Dastlab qo'shiq va so'z bilan bog'liq holatda rivojlangan raqs, hayotdagi o'zgarishlar ta'sirida yangilanib, takomillashib borib, mustaqil san'at turiga aylangan.

Boshqa sohalarga qaraganda san'atning katta ma'naviy - tarbiyaviy kuchga ega ekanligi ma'lum. Jozibali raqs yuraklarga ezgulik ulashadi, go'zal va nafis harakatlar insonni raqsning nazokatli olamiga olib kiradi. Raqsning sirli va maftunkor harakatlari inson ko'nglini zavqqa to'ldiradi, uning tafakkurini boyitishga xizmat qiladi.

Har bir xalq raqsalarida o'ziga xos ijro uslubi, harakatlarning tasviriy vositalari mavjud bo'lib, raqslar shu xalqning tarixiy, ijtimoiy, geografik sharoitlari ta'sirida tarkib topgan va rivojlanib kelgan. Har bir xalqning o'ziga xos, bir - biriga o'xshamaydigan raqs san'ati mavjud bo'lib, uning kuy - taronalarida, harakatlarida rang - baranglik, xalqning boy hayoloti, go'zalligi va o'zligi namoyon bo'ladi.

Raqs san'atida asosiy ifoda vositasi hisoblangan ijrochining uyg'un tana harakati va holatlari, yuzidagi imo - ishoralari, shu bilan birga musiqiy ritm, temp badiiy obraz yaratilishiga xizmat qiladi hamda raqsning o'ziga xos, shartli-majoziy xususiyatlarini belgilaydi.

Etnomadaniyat manbalariga asosan, O'zbekiston hududida bundan qirq ming yil avval yashagan insonlar o'z his-tuyg'ulari, hayajonlari va iztiroblarini turli ohangli, ifodaviy vositalar – ashula va tana harakatlari orqali badiiy umumlashtirishga harakat qilganlar [5].

Raqslar haqidagi dastlabki ma'lumotlar respublikamiz hududlarida joylashgan tog' qoyatoshlarga chizib qoldirilgan ko'plab tasvirlar orqali hozirgi kunga yetib kelgan. O'zbek raqs san'atining qadimiyligi, uning shakl va turlarining boyligi ajdodlarimizning asosan dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanganidan darak beradi.

Zardushtiylikning muqaddas "Avesto" kitobida raqs san'atining bronza hamda ilk temir davrida ikki yo'nalishda rivojlanganligi haqida ma'lumotlar mavjud. O'zbekiston joylashgan hududda topilgan turli tasvirlar, arxeologik topilmalar bu yerda raqs juda qadimiyligidan va bundan uch ming yil burun ushbu hududning janubiy tumanlarida professional raqs san'ati shakllana boshlaganidan guvohlik beradi.

O'zbekiston tarixi sahifalaridan, L.Avdeyeva tadqiqotlaridan ma'lumki, shahar madaniyatining o'sib borishi natijasida raqs san'ati ham rivojlanib bordi, uning murakkab shakllari paydo bo'ldi [1, B.14]. Raqsning janrlari, turlari, turkumlari kengayib, xalqning maishiy hayotida o'z o'rniga ega bo'lib bordi.

Qadimiy Xorazm, Baqtriya, So'g'diyona davlatlarida, respublikamizning turli hududlarida, jumladan, Surxondaryoning Zarautsoy kamari, Farg'onaning Suratsoy va Saymalitosh manzili, Samarqandning Ilonsoy va Oqsoy xududi hamda Xorazmdan topilgan ko'plab yodgorliklar o'zbek raqs san'atining qadimiyligidan guvohlik beradi. Baqtriya va Sug'dda topilgan qadim yodgorliklar qo'shiq kuylash manzalarini o'zida aks ettirgan.

Shu kabi yodgorlik namunalari Samarqand va Panjikent chegaralari xududida ham topilgan bo'lib, ularning barchasi mamlakatimizda qadimdan raqs san'ati rivojlanib kelganiga guvohlik beradi.

IX – XII asrlarga kelib raqs san'atida rivojlanish yuz beradi, qadimiy raqslar tiklanadi va ular Navro'z, Mehrjon hamda Sada bayramlarida namoyish etiladi.

O'rta Osiyoning yirik olimi Abu Rayhon Beruniy "O'tgan avlodlar yodgorliklari" (XI asr) risolasida shunday yozgan: "Endi Navro'z bahorda nishonlanmoqda – yilning hosildorligi belgilanadigan paytda, ya'ni birinchi tomchi tushishidan gullar ochilishigacha, daraxtlar gullashidan meva pishganicha...". Shuning uchun Navro'z olamning yaratilishi, boshlanishi ko'rsatkichiga aylangan [4, B.39].

Feodallar saroylarida professional san'at borgan sari tor doiradagi — uy ichi san'atiga aylanib, uning ixcham, kichik shakllari rivoj topa boshladi. XIV—XVI asrlarda O'rta Osiyoda feodalizm madaniyati gullagan davrda saroy san'ati jadal rivojlanib, katta yutuqlarga erishdi.

Raqs san'ati Temuriylar davrida keng ravnaq topdi. Amir Temur Movoraunnahrni muhim madaniy markazlardan biriga aylantirishi bois, bu yerda madaniyat va san'atga e'tibor nihoyatda kuchaydi. Amir Temurning hukmdorlik davrida madaniyat, ilm-fan, me'morchilik, tasviriy san'at, she'riyat va musiqa san'ati yuksak darajada rivojlandi. Xalq sayillari va bayramlar tashkil etilib, buning natijasida ommaviy maydon raqsi rivoj topdi.

Temuriylar davrining tomosha hamda raqs san'ati haqida ma'lumotlar mavjud bo'lib, bu borada Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", Zayniddin Vosifiyning "Badoye' ul-vaqoye" kabi asarlarini tilga olish mumkin. O'rta Osiyoning ensiklopedik olimlari Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, musiqashunos Abu Nasr Farobiy, Abdurahmon Jomiy, saroy musiqachisi Darvesh Ali Changiyning musiqa san'atiga doir ilmiy risolalari muhim manba bo'lib, ularda musiqiy tovush xususiyatlari, akustika, musiqa cholg'ulari, raqs ritmi va usullari kabi mavzular yoritilgan.

Shaharlarda savdo va hunarmandchilikning rivojlanishi hamda ularning ixtisoslanishi san'atkorlar hayotida ham ancha o'zgarishlarga sabab bo'ldi.

Professional artistlar (saroy artistlaridan tashqari) turli hunarmand kosiblar kabi o'zining qattiq qonun - qoidalariga ega bo'lgan maxsus sexlarga birlashganlar. Shuni alohida qayd etish zarurki, ko'p kosiblar yoki uyushma a'zolari maxsus marosim o'yinlarini ijro etishni ham bilganlar: raqqoslik ularning ikkinchi hunarlari hisoblangan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida o'zbek raqs san'ati "Katta o'yin" nomli yirik shakldagi bir qancha raqslardan (bu janrdagi raqslarning asosi aynan shu raqsning o'zi bo'lgani uchun, ularning hammasini ham shu nom bilan yuritishar edi), "Xona bazm" deb ataluvchi raqslardan, ommaviylashtirilgan raqslardan, sirkka xos bir qancha o'yinlardan va ijrochilari professional raqqos bo'lmagan improvizatsiya o'yinlaridan iborat edi [2, B.15].

Xalqimizning xoreografik merosida "Katta o'yin"ning mavjudligi o'zbek raqsining katta tarixga ega ekanligi va ko'p asrlardan beri rivojlanib kelayotganidan darak beradi.

XX asrlarda raqs san'ati Buxoro, Xorazm va Farg'ona raqsi yo'nalishlarida va zamonaviy sahna talablari asosida qayta ishlangan sahnaviy xalq raqsi sifatida hamda milliy raqs elementlaridan foydalangan balet spektakllari tarzida rivojlanib keldi.

O'zbekiston Mustaqillikka erishgan davrdan boshlab raqs san'ati rivojiga alohida e'tibor berildi, qadimgi urf-odat, an'ana va marosimlar qayta tiklandi. Raqs san'ati yangicha shakl va tez sur'atlarda rivojlanib, o'tgan davr mobaynida raqs san'atining boy an'analari o'ziga xos talqin va mazmunga ega bo'ldi.

O'zbek xalq raqslari rang - barang ko'rinishlarga ega bo'lib, bu turli mintaqalarda janr, mavzu, raqslarga qiziqishning turlichaligi bilan belgilanadi. Xalq raqslari hajviy, lirik, dramatik janrlarga ega bo'lib, ularda mehnat, maishiy muhit, inson va tabiatning o'zaro munosabatlari ancha sodda aks ettiriladi.

Xalq raqsi bilan birgalikda mumtoz raqs turkumi ham mavjud bo'lib, uning ijro usuli va an'analari avlodan-avlodga o'tib, sayqal topib kelmoqda. Dastlab turli tarixiy bosqichlarni bosib o'tib, so'ngra asosan professional raqs ustalari tomonidan ijro etilgan milliy raqs shakli va harakatlari tartibga keltirilgan.

"O'zbek xalqining ko'hna raqs san'atini tiklash an'anaviy raqs san'atini tasniflash jadvalini tuzib chiqish imkonini berdi. Unda to'rtta raqs "maktab" ining guvohi bo'lamiz: farg'onacha, buxorochocha, xorazmcha hamda tog'li xalqlar raqslari. Ana shu to'rt tizimga xos raqs har birining hayotini, mashhur mavzu va mazmunlarni murakkab yo'sinda ifoda etuvchi ramzli, timsolli plastik olami mavjudligini, o'ziga xos xoreografik tafakkur zimiriga qurilganligini e'tirof etish lozim" [3].

Hozirgi O'zbekiston viloyatlarining turmush taraqqiyoti, mehnat, tabiat, hayot sharoitlarining o'ziga xosligi o'zbek raqslarning turli-tuman uslublarining yaratilishiga sabab bo'ldi.

O'zbek raqsining Farg'ona, Xorazm va Buxoro raqs maktablari mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos uslub, harakat, holat hamda liboslariga egadir. Bu raqs o'zining mazmuni, zarblari, ohanglari, harakatlari hamda his-tuyg'ulari bilan bir-biridan farqlanib turadi.

Farg'ona raqslari. O'zbek raqsining Farg'ona maktabi raqs harakatlari o'z shakllariga ega bo'lgan xoreografik obrazlar tizimidir. Farg'ona vodiysi shaharlari va Toshkent mintaqasi raqslari ana shu maktab raqslari guruhiga kiradi.

Farg'ona maktab an'anaviy raqslari asosan aylana bo'ylab quriladi, ularda gavda tabiiy tutiladi, yelkalar erkin holatda bo'lishi bilan ajralib turadi. Farg'ona maktabi raqslari xarakteriga uncha qiyin bo'lmagan, oyoq barmoqlarida yarim turish orqali bajariluvchi almashma yurishlar, barmoqlarga baland turish orqali bajariluvchi aylanish – shox, doira bo'ylab aylanish - charx kabi harakatlar xosdir. Bu maktabga mansub bo'lgan o'zbek raqsini ijro etishda oyoq, qo'l, tana va bo'yin harakatlarining har bir jihati muhim ahamiyat kasb etadi.

Farg'ona maktabi raqsining xarakteri goh sho'x va tetik, goh mayin harakatli bo'lib, raqs ijrosi gavnani biroz oldinga egib, nafis tutish, turli ma'noni aks etuvchi nozik va chiroyli qo'l harakatlariga asoslanadi. Bu uslub raqsida qo'llar go'yoki o'simliklar dunyosining badiiy ifodasiga aylanadi.

Farg‘onacha raqs uslubida ichki his-hayajon kuchli bo‘lsada, raqqosa o‘z hissiyotlarini mayin va bosiq harakatlar ortiga, ko‘z nigohi, yuzdagi imo-ishoralar, qo‘llarning nozik harakati va asta bosilgan qadamlar ortiga yashirgan holatda ijro etadi.

Farg‘ona raqs maktabi juda nozik va mayin bo‘lganligi tufayli, unga ozgina o‘zgartirish yoki harakatlar jo‘shqinligi kiritilsa, bu uslub o‘z asl ma‘no va mazmunini yo‘qotadi. Bugungi kun raqs san‘atining vazifalaridan biri ana shunday durdona raqslarni kelajak avlodga o‘zgarmagan holda, mavjud jozibasi, go‘zalligi va serma‘noligini saqlagan holatda yetkazishdan iboratdir.

Farg‘ona raqs maktablarida sahna liboslari nisbatan sodda ko‘rinishga ega, ammo bejirim beqasam choponlari, nozik ranglardagi shoyi ko‘ylaklari, nafis ko‘rinishi hamda ranglarning o‘zaro uyg‘unligi bilan alohida ajralib turadi(1- rasm).



1-rasm: Farg‘ona raqsi “Tanovar”

Buxoro raqslari. O‘zbek xalq raqs uslublaridan biri Buxoro raqs maktabi bo‘lib, bu guruhga Buxoro viloyati raqslari kiradi. Bu raqs harakatlarning mardonavorligi, shiddatliligi, qayrilish va charxlarga boyligi bilan ajralib turadi. Buxoro raqslarida gavdaning yelkadan pastki qismi erkin qo‘yiladi, gavdaning mag‘rur tutilishi barcha harakatlar xarakterini belgilaydi. Bu raqslardagi har bir harakat o‘z nuqtasiga ega bo‘lib, keyingi harakatga qo‘shilib ketmaydi. Buxoro raqslarida farg‘onacha raqs kabi qo‘llar cho‘zilmaydi. Qo‘l harakatlari aniq, sinuvchan, ko‘p hollarda tirsak bilan o‘tkir burchak hosil qilishi mumkin. Odatda barcha Buxoro raqslari oyoqda tikka turgan holda, goh sekin, goh sakrash, goh qisqa o‘tirib, yana turib o‘ynash harakatlari bilan ijro etiladi.

Buxoro raqslarida tabiatga taqlid etilmaydi, raqs ma‘lum bir syujetga asoslanmaydi, ularda ko‘proq tana harakatlari bilan qalb kechinmalari, ruhiy holat ifoda etiladi (2 rasm).



2 rasm: Buxorocha raqs

Xorazm raqslari. Xorazm raqslari o'zining sho'xligi, yorqinligi hamda quvnoqligi bilan alohida ajralib turadi. Raqslarda ko'p harakatlar o'tirish yoki yarim o'tirish holatida ijro etiladi hamda gavdada bukilishlar bo'lmaydi. Xorazm raqslarida kaftlar bo'sh qo'yilgan bo'lib, doim mayda silkinishlarni bajaradi, gavdaning yuqori qismida ham silkinishlar mavjud, raqs xarakteri sho'x va o'ynoqiligi bilan tomoshabinga zavq bag'ishlaydi.

Xorazm raqslarida doira bo'ylab aylanishlar uchramaydi. Bu raqslardagi oyoq harakatlarida qo'l harakatlari kabi yengil sakrashlar muhim ahamiyatga egadir. Xorazm raqslarida qayroq bilan raqs ijro etish keng tarqalgan bo'lib, liboslar o'ziga xos bosh kiyimlar, pat, zang hamda gulbarglar shaklidagi ko'krak taqinchoqlar bilan bezatiladi(3 rasm).

Xorazm raqslarida o'simliklar dunyosi emas, balki jonzotlar dunyosi ko'proq o'z aksini topadi. Xorazm raqslarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ularda xo'roz, shag'alla, tustovuq o'yini, baliq o'yin, echki o'yin kabi illyustrativ harakatlar hozirgi kungacha saqlanib kelgan.



3 rasm: Xorazm raqsi

Raqs san'atining tarixi, xalqlar sahna raqslari merosi masalasi hamda zamonaviy raqs voqeligini o'rganishga bag'ishlangan yirik monografik tadqiqotlar, ilmiy maqolalar, turkum himoya qilingan magistrlik va bakalavrluk dissertatsiyalari, nomzodlik va doktorlik tadqiqotlari, o'tkazilgan respublika va mintaqaviy konferensiyalar soni, salmog'i raqs san'atiga bo'lgan e'tibordan darak beradi. O'zbek raqs san'ati nomini butun dunyoga tanitish istagida tinimsiz mehnat qilib kelayotgan raqsshunoslar baletmeyster va raqqosalarning mehnatini xalqaro hamjamiyat oldida tarannum etmoqda.

Ushbu davrning tarixiy ahamiyatga molik yutuqlaridan biri sifatida ko'rinadi. Eng avvalo o'zbek tilining raqsshunoslik tafakkurida chinakamiga ilm tili maqomiga yuksalganligini alohida qayd etish zarur. O'tgan asrning yigirmanchi yillarida A.Ardobus, I.Baxta keyinroq esa L.Avdeyeva, M.Raxmonov, M.Qodirov, T.Tursunov, R.Karimova va boshqa olimlar raqsshunoslik ilmining taraqqiyotiga xizmat qildilar.

Bashariyat tarixida davlatlarning vujudga kelishi, turli xalq va millatlarning shakllanishi turfa xil san'at yo'nalishlari paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Har bir xalqning o'z milliy san'ati yaratildi va takomillashib bordi. Har bir millatning o'zigagina xos bo'lgan jihatlar: etnik kelib chiqishi, mamlakat xududining joylashuvi, umummilliy qadriyatlar, urf-odatlar hamda xarakteri raqs harakatlariga ko'chdi. Shu asosda turli xalq raqslari vujudga keldi. O'ziga xos bu raqslar millatning orzu-umidlari, ichki tug'yonlari, davr va muhitga bo'lgan munosabat, eng asosiysi har bir qalb ichki kechinmalarining ifodasi sifatida eng sevimli san'at darajasiga ko'tarildi.

ИҚТИБОСЛАР. СНОСКИ. REFERENCES

1. Авдеева Л. Танцевальное искусство Узбекистана. - Ташкент, 1963, стр. 14.
2. Авдеева Л. Танцевальное искусство Узбекистана. Т. 1960, стр.15.
3. Авдеева Л. “Балет Узбекистана”. Издательство литературы и искусств имени Г.Гуляма, Ташкент, 1973.
4. Карабаев У. Этнокультура. - Ташкент, “Шарқ”, 2005, стр.39.
5. Raхmonov M. O‘zbek teatri tarixi. – Toshkent, 2003.

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 3-СОҢ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-II, НОМЕР-3

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-II, ISSUE-3

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz